

**IKKI TILLILIK (BILINGVIZM) VA UNING BOLALAR VA KATTA
YOSHDAGILARNING KOGNITIV RIVOJLANISHIGA TA'SIRI****Azimova Dilnur Mansurjon qizi**

Guliston Davlat universiteti

E-mail: dilnurrahimova@gmail.com**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 29.08.2025**Revised: 30.08.2025**Accepted: 31.08.2025***KALIT SO'ZLAR:**

*ikki tillilik, bilingvizm,
kognitiv rivojlanish,
bolalar rivojlanishi,
kattalar rivojlanishi, til
o'rganish, miya
funktsiyalari, e'tibor,
xotira, analitik
ko'nikmalar,
psixolingvistika.*

Ikki tillilik (bilingvizm) bolalar va katta yoshdagilarning kognitiv qobiliyatlariga, asosan, xotira, diqqat va muammolarni hal qilish kabi qobiliyatlariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Ushbu maqolada ikki tillilikning kognitiv rivojlanishga ta'sirini lingvistika va psixolingvistika nuqtai nazaridan o'rganiladi, va ushbu jarayonni o'rganishda Vigotskiyning ijtimoiy-kognitiv rivojlanish nazariyalariga tayanadi. Vigotskiyning ta'kidlashicha, til ijtimoiy o'zaro ta'sir orqali kognitiv rivojlanishni shakllantiradi, bu esa ikki tilli muhitda yanada murakkab kognitiv jarayonlarni keltirib chiqaradi. Ilmiy tadqiqotlardan olingan misollar, masalan, Bialystok (2011) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, ikki tilli bolalarda diqqatni boshqarish va kognitiv moslashuvchanlikning yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. Maqolada ikki tillilikning kognitiv afzalliklari va cheklovlarini ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi, shuningdek, kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo'nalishlarni muhokama qilinadi.

Ikki tillilik – bu bir shaxsning ikki yoki undan ortiq tillarda erkin muloqot qila olish qobiliyatidir. So'nggi yillarda olimlar ikki tillilikning miya faoliyatiga, xususan, xotira,

diqqat va muammolarni hal qilish kabi kognitiv qobiliyatlarga ta'sirini o'rganishga katta e'tibor berishmoqda. Ushbu maqola ikki tillilikning bolalar va kattalardagi kognitiv qobiliyatlarga qanday ta'sir qilishini ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qiladi va ushbu jarayonning afzalliklari hamda mumkin bo'lgan cheklovlarini ko'rib chiqadi. Ikki tillilik miyada kognitiv jarayonlarni boshqarishda muhim o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ikki tilli odamlar doimiy ravishda tillar o'rtasida almashishadi, bu esa miyaning ijro etuvchi funksiyalarini rivojlantiradi. Ijro etuvchi funksiyalar diqqatni boshqarish, vazifalar o'rtasida almashish va keraksiz ma'lumotlarni filtr qilish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ikki tillilik – bu shaxsning ikki yoki undan ko'p tillarda erkin muloqot qila olish qobiliyatidir. Ushbu fenomen miya faoliyatiga, xususan, xotira, diqqat va muammolarni hal qilish kabi kognitiv qobiliyatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Lev Vigotskiyning ijtimoiy-kognitiv rivojlanish nazariyasi nuqtai nazaridan, ikki tillilik nafaqat shaxsiy kognitiv jarayonlarga, balki ijtimoiy va madaniy kontekstlarda o'zaro ta'sir orqali rivojlanadigan aqliy qobiliyatlarga ham ta'sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ikki tilli bolalar va kattalar bu sohada bir tilli tengdoshlariga nisbatan afzalliklarga ega bo'lishi mumkin.

Bolalar miyasi yuqori darajada plastiklikka ega bo'lib, bu ularga yangi tillarni oson o'rganish imkonini beradi. Ikki tillilik erta yoshda kognitiv rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Bialystok¹⁴¹ tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda ikki tilli bolalar bir tilli bolalarga qaraganda diqqatni boshqarishda yaxshiroq natijalar ko'rsatgan. Ular Stroop testi¹⁴² kabi kognitiv topshiriqlarda muvaffaqiyatliroq bo'lishgan, bunda ishtirokchilar rang nomlarini o'qishda matn rangiga mos kelmasligini e'tiborsiz qoldirishlari kerak edi. Bu jarayon diqqatni jamlash va keraksiz ma'lumotlarni bloklash qobiliyatini talab qiladi. Bundan tashqari, ikki tilli bolalar muammolarni hal qilishda ko'proq moslashuvchanlik ko'rsatadi. Misol uchun, Wisconsin Card Sorting Test (WCST) sinovida ikki tilli bolalar qoidalarni tezroq o'zgartirib, yangi strategiyalarni qo'llashda bir tilli bolalarga nisbatan ustunlikka ega ekanligi aniqlangan¹⁴³. Bu ularning kognitiv moslashuvchanligi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Lev Vigotskiyning nazariyasiga ko'ra, kognitiv rivojlanish ijtimoiy o'zaro ta'sirlar va madaniy kontekstlar orqali shakllanadi.

¹⁴¹ Bialystok, E., & Barac, R. (2012). Bilingual effects on cognitive and linguistic development: Role of language, cultural background, and education. *Child Development*, 83(2), 413-422.

¹⁴² Prior, A., & Gollan, T. H. (2011). Good language-switchers are good task-switchers: Evidence from Spanish-English and Mandarin-English bilinguals. *Journal of Memory and Language*, 65(4), 517-528.

¹⁴³ Bialystok, E., & Barac, R. (2012). Bilingual effects on cognitive and linguistic development: Role of language, cultural background, and education. *Child Development*, 83(2), 413-422.

Uning asosiy tushunchalaridan biri – “yaqin rivojlanish zonasi”¹⁴⁴, ya’ni shaxs mustaqil ravishda bajarolmaydigan vazifalarni boshqalarning yordami bilan amalga oshirishi mumkin bo’lgan rivojlanish darajasi. Vigostskiy shuningdek, tilni kognitiv rivojlanishning asosiy vositasi deb hisoblaydi, chunki u fikrlash va muammolarni hal qilish jarayonlarini tashkil qilishga xizmat qiladi.

Ikki tillilik Vigostskiy nazariyasi nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega, chunki u shaxsning ikki xil lingvistik va madaniy muhitda o’zaro ta’sir qilishini talab qiladi. Bu jarayon nafaqat kognitiv qobiliyatlarni rivojlantiradi, balki ijtimoiy kontekstlarda moslashuvchanlik va muammolarni hal qilishda yangi strategiyalarni shakllantirishga Vigostskiyning ta’kidlashicha, bolalar kognitiv qobiliyatlari ijtimoiy o’zaro ta’sirlar orqali rivojlanadi, bu esa ikki tilli muhitda yanada murakkab shaklda namoyon bo’ladi. Ikki tilli bolalar ikki xil lingvistik tizimda faol ishtirok etish orqali til orqali fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Masalan, Vigostskiyning “vositaviy faoliyat” (mediated activity) tushunchasiga ko’ra, til kognitiv jarayonlarni tashkil qilishda vosita sifatida xizmat qiladi. Ikki tilli bolalar bu jarayonda ikki tilli muhitdan foydalanib, yanada murakkab kognitiv strategiyalarni rivojlantiradilar.

Ikki tillilik xotira jarayonlariga ham ta’sir qiladi. Xususan, ishchi xotira ikki tilli bolalarda yaxshiroq rivojlanadi, chunki ular tillar o’rtasida doimiy ravishda ma’lumotlarni qayta ishlash va saqlash bilan shug’ullanishadi. Morales¹⁴⁵ va boshqalar tomonidan o’tkazilgan tadqiqotda ikki tilli bolalar n-back testi kabi ishchi xotirani sinovdan o’tkazuvchi vazifalarda bir tilli bolalarga qaraganda yaxshiroq natijalarga erishgan.

Ikki tillilikning kattalarga ta’siri ham sezilarli darajada muhimdir. Kattalar ikki tillilik orqali kognitiv zaxirani oshirishi mumkin, bu esa miyaning qarish jarayonlariga qarshi turishiga yordam beradi. O’tkazilgan tadqiqotda ikki tilli kattalar bir tilli tengdoshlariga nisbatan demensiya-keksalik xotira yo’qotilishi belgilarini kechroq namoyon qilishi aniqlangan. Bu ikki tillilikning miyada uzoq muddatli himoya mexanizmlarini yaratishi bilan bog’liq. Kattalarda ikki tillilikning kognitiv ta’siri Vigostskiy nazariyasi nuqtai nazaridan ijtimoiy va madaniy kontekstlarda uzoq muddatli o’zaro ta’sirlar orqali shakllanadi. Ikki tilli kattalar turli lingvistik va madaniy muhitlarda faol ishtirok etish orqali kognitiv moslashuvchanlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

¹⁴⁴ Выготский, Л. С. (1986). *Мышление и речь*. Москва: Педагогика

¹⁴⁵ Morales, J., Calvo, A., & Bialystok, E. (2013). Working memory development in monolingual and bilingual children. *Journal of Experimental Child Psychology*, 114(2), 187-202.

Vigostskiyning “ijtimoiy o‘zaro ta’sir” tushunchasiga ko‘ra, ikki tilli shaxslarning turli tillarda muloqot qilish tajribasi ularning kognitiv jarayonlarini boyitadi va yangi muhitlarga moslashish qobiliyatini oshiradi.

Diqqat va vazifalar o‘rtasida almashish qobiliyati kattalarda ham ikki tillilik tufayli yaxshilanadi. Prior va MacWhinney¹⁴⁶ tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda ikki tilli kattalar vazifalar o‘rtasida tezroq almashish va diqqatni boshqarishda bir tilli odamlarga nisbatan afzallik ko‘rsatgan. Bu, ayniqsa, ko‘p vazifali -multitasking muhitda muhimdir, chunki ikki tilli shaxslar tillar o‘rtasida almashish tajribasi tufayli bunday vaziyatlarda samaraliroq harakat qilishadi.

Muammolarni hal qilishda ikki tilli kattalar ko‘proq ijodiy va moslashuvchan yondashuvlarni qo‘llashga moyil. Kharkhurin¹⁴⁷ tadqiqotida ikki tilli shaxslarning ijodiy fikrlash “Torrance Test of Creative Thinking” singari testlarda yuqori natijalarga erishgani aniqlangan. Bu ikki tillilikning turli xil madaniy va lingvistik kontekstlarda fikrlash qobiliyatini oshirishi bilan izohlanadi.

Vigostskiy nazariyasiga ko‘ra, kognitiv rivojlanish ijtimoiy muhitda o‘zaro ta’sirlar orqali amalga oshiriladi. Ikki tilli shaxslar ikki xil madaniy va ijtimoiy kontekstda faoliyat yuritish orqali kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantiradilar. Masalan, ikki tilli bolalar o‘qituvchilar, tengdoshlar va oila a’zolari bilan turli tillarda muloqot qilish orqali yangi lingvistik va kognitiv strategiyalarni o‘rganadilar. Bu jarayon Vigostskiyning “o‘rganish rivojlanishdan oldin keladi” degan g‘oyasiga mos keladi, chunki ijtimoiy muhitda tillarni o‘rganish kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kattalarda esa ikki tillilik ijtimoiy moslashuvchanlikni oshiradi. Masalan, ikki tilli shaxslar turli madaniy muhitlarda ishlash yoki muloqot qilishda ko‘proq muvaffaqiyatga erishadilar, chunki ular turli ijtimoiy kontekstlarga moslashishga odatlangan. Bu Vigostskiyning ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali kognitiv rivojlanish haqidagi g‘oyalarini tasdiqlaydi.

Ikki tillilikning kognitiv afzalliklari ko‘p bo‘lsa-da, ba’zi cheklovlar ham mavjud. Masalan, ikki tilli bolalar va kattalar ba’zida so‘z boyligi jihatidan bir tilli shaxslarga nisbatan kichikroq so‘z zaxirasiga ega bo‘lishi mumkin. Bu, ayniqsa, kam ishlatiladigan

¹⁴⁶ Prior, A., & Gollan, T. H. (2011). Good language-switchers are good task-switchers: Evidence from Spanish-English and Mandarin-English bilinguals. *Journal of Memory and Language*, 65(4), 517-528.

¹⁴⁷ Kharkhurin, A. V. (2010). Bilingualism and creativity: Benefits in convergent thinking come with losses in divergent thinking. *Bilingualism: Language and Cognition*, 13(4), 517-526.

tilda sezilarli bo'lishi mumkin. Shuningdek, tillar o'rtasida almashishda kichik kechikishlar yuzaga kelishi mumkin, bu esa ba'zi kognitiv vazifalarda qisqa muddatli sekinlashuvlarga olib keladi.

Bundan tashqari, ikki tillilikning kognitiv afzalliklari har doim ham universaldir deb bo'lmaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, afzalliklar ko'pincha shaxsning ikki tillilik darajasiga, tillarni o'rganish yoshiga va ularning foydalanish chastotasiga bog'liq. Masalan, faqat bir tilda faol muloqot qiladigan shaxslar kognitiv afzalliklarni kamroq namoyon qilishi mumkin.

Ikki tillilikning kognitiv qobiliyatlarga ta'sirini o'rganishda bir qator ilmiy tadqiqotlar muhim natijalar berdi. Masalan, Karlson va Meltzoff¹⁴⁸ tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda ikki tilli bolalar kognitiv boshqaruv testlarida bir tilli bolalarga qaraganda yaxshiroq natijalarga erishgan. Bu tadqiqot bolalarga ikki tilli ta'limni erta yoshda boshlashning afzalliklarini ta'kidadi.

Kattalar bo'yicha tadqiqotlarda esa ikki tillilikning miya qarishiga qarshi himoya ta'siri alohida e'tiborga sazovor. Alladi¹⁴⁹ tomonidan Hindistonda o'tkazilgan tadqiqotda ikki tilli shaxslarning demensiya boshlanishini o'rtacha 4-5 yil kechiktirgani aniqlangan. Bu natija ikki tillilikning uzoq muddatli foydalarini ko'rsatadi.

Amaliy nuqtai nazardan, ikki tillilik ta'lim tizimlarida kognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun muhim vosita sifatida qaralishi mumkin. Masalan, maktablarda ikki tilli dasturlarni joriy qilish bolalarning kognitiv moslashuvchanligini oshirishi va ularni global dunyoda muvaffaqiyatli ishtirok etishga tayyorlashi mumkin.

Xulosa. Ikki tillilik bolalar va kattalarning kognitiv qobiliyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xotira, diqqat va muammolarni hal qilish kabi sohalarda ikki tilli shaxslar ko'pincha bir tilli tengdoshlariga nisbatan afzalliklarga ega. Bu afzalliklar miyaning ijro etuvchi funksiyalarini rivojlantirish va kognitiv zaxirani oshirish orqali amalga oshiriladi. Biroq, so'z boyligi va tillar o'rtasida almashishdagi kichik kechikishlar kabi cheklovlar ham mavjud. Ilmiy tadqiqotlar ikki tillilikning aqliy rivojlanishga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi va bu ta'lim va jamiyatda kengroq qo'llanilishi kerak bo'lgan muhim resurs ekanligini ko'rsatadi.

¹⁴⁸ Alladi, S., Bak, T. H., Duggirala, V., Surampudi, B., Shailaja, M., Shukla, A. K., ... & Kaul, S. (2013). Bilingualism delays age at onset of dementia, independent of education and immigration status. *Neurology*, 81(22), 1938-1944.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adesope, O. O., Lavin, T., Thompson, T., & Ungerleider, C. (2010). A systematic review and meta-analysis of the cognitive correlates of bilingualism. *Review of Educational Research*, 80(2), 207-245.
2. Alladi, S., Bak, T. H., Duggirala, V., Surampudi, B., Shailaja, M., Shukla, A. K., ... & Kaul, S. (2013). Bilingualism delays age at onset of dementia, independent of education and immigration status. *Neurology*, 81(22), 1938-1944.
3. Bialystok, E., & Barac, R. (2012). Bilingual effects on cognitive and linguistic development: Role of language, cultural background, and education. *Child Development*, 83(2), 413-422.
4. Prior, A., & Gollan, T. H. (2011). Good language-switchers are good task-switchers: Evidence from Spanish-English and Mandarin-English bilinguals. *Journal of Memory and Language*, 65(4), 517-528.
5. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.
6. Выготский, Л. С. (1986). *Мышление и речь*. Москва: Педагогика.
7. Леонтьев, А. А. (2003). *Язык, речь, речевая деятельность*. Москва: Просвещение.
8. Лурия, А. Р. (2002). *Язык и сознание*. Москва: Издательство МГУ.
9. Kharkhurin, A. V. (2010). Bilingualism and creativity: Benefits in convergent thinking come with losses in divergent thinking. *Bilingualism: Language and Cognition*, 13(4), 517-526.